



Gazeta 1956 yildan
chiqa boshlagan

2015 yil Avgust 8 (746)

Bilim - taraqqiyot negizi

Agroном

TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI GAZETASI



Prezidentimiz vatanimiz mustaqilligining 24 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimidagi nutqida “Yurtimizda har yili 600 mingdan ko‘proq zamon talabiga javob beradigan yosh mutaxassislar–kamida ikki-uchta kasb-hunarni, chet tillarni, internet va axborot texnologiyalarini, zamonaviy bilim cho‘qqilarini egallagan, rivojlangan davlatlardagi tengdoshlari bilan bellashuvga tayyor bo‘lgan, ko‘zi yonib turgan yigit-qizlarimiz bugun jamiyatimizning haqiqatan ham hal qiluvchi kuchiga aylanib, hayotga kirmoqda. Bizning eng katta suyanchimiz va tayanchimiz bo‘lmish ana shunday yoshlarni, ana shunday beqiyos salohiyatga ega bo‘lgan xalqni hech qachon o‘z yo‘lidan qaytarib, yengib bo‘lmaydi. Bunga barchamizning ishonchimiz komil” – deya ta’kidladi.

Darhaqiqat, bu ishonch ertangi kun egalari bo‘lmish yoshlarimiz oldiga ulkan mas’uliyat yuklaydi. Negaki, ularning ilm olishlari, o‘z qobiliyatini namoyish etishlari uchun maqtashga arzigulik ishlar amalga oshirilmoqda. 24 yil orasida bosib o‘tilgan yo‘limizga nazar tashlar ekanmiz, beixtiyor qalbimiz g‘urur va iftixorga to‘ladi. Bu yillar davomida erishilgan yutuqlar, zabt etilgan marralar va quvonarli natijalarni xolisona baholash, mamlakatimiz rivoji va halqimizning turli sohalarda erishgan yutuqlariga nazar tashlash har bir millat farzandiga sururli lahzalarni bahsh etadi!



PREZIDENTIMIZ ISLOM KARIMOVNING “ONA YURTIMIZ BAXTU IQBOLI VA BUYUK KELAJAGI YO'LIDA XIZMAT QILISH – ENG OLIY SAODATDIR” KITABI CHOP ETILDI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning «Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yo'lida xizmat qilish – eng oliy saodatdir» nomli kitobi «O'zbekiston» nashriyoti tomonidan ko'pining nusxada chop etildi.



Ma'lumki, 2015 yil 29 mart kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga saylov o'tkazilib, unda saylovchilarning 90,39 foizi Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – O'zbekiston liberal-demokratik partiyasidan Prezidentlikka nomzod Islom Abdug'aniyevich Karimovga ovoz berdi. Bunday yorqin g'alaba, hech shubhasiz, Islom Karimovning davlat rahbari sifatida O'zbekiston mustaqilligini ta'minlash, uni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish borasidagi strategik maqsad va vazifalarni hal etish yo'lidagi beqiyos xizmatlari, yurtimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamlil islohotlarning xalqimiz tomonidan yuksak e'tirof etilgani va yakdillik bilan qo'llab-quvvatlanganidan dalolat beradi.

Ushbu kitobdan davlatimiz rahbarining saylovoldi jarayonlaridagi 20 dan ziyod uchrashuv va anjumanlarda, jumladan, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlari va Senati a'zolari bilan uchrashuvlarda, ikkala palataning qo'shma majlisida, Vazirlar Mahkamasining mamlakatimizni 2014 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2015 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan majlisida, Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi Homiylik kengashining yig'ilishida, Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – O'zbekiston liberal-demokratik partiyasining VII s'ezdida, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar saylovchilari vakillari bilan uchrashuvlarida, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimidagi nutq va ma'ruzalarida, shuningdek, 9 may – Xotira va qadrlash kuni munosabati bilan ommaviy axborot vositalariga bergan intervyusida bildirgan eng muhim, konseptual ahamiyatga ega g'oya va fikr-mulohazalari o'rin olgan.

Davlatimiz va jamiyatimizning yaqin va uzoq istiqbolga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasi aniq-ravshan belgilab berilgan ana shu chiqishlarda mamlakatimizni demokratik yangilash va modernizatsiya qilish jarayonlarini yangi bosqichga ko'tarish, uning iqtisodiy qudratini oshirish, ijtimoiy sohalar – ta'lim-tarbiya, ilmu fan, sog'liqni saqlash, madaniyat va san'at, sport tizimini izchil rivojlantirish, ayollar, keksalar va yoshlarimiz uchun yanada qulay sharoit va imkoniyatlar yaratish, har bir hudud va mintaqani ravnaq toptirishga

doir yangi reja va ustuvor loyihalar, bugungi kunda dunyoda yuz berayotgan keskinlik va qarama-qarshiliklarning mohiyati, turli tahdidlarning oldini olish, O'zbekistonning tashqi siyosat kontsepsiyasi to'g'risidagi qarashlar har tomonlama puxta asoslangan holda bayon qilingan.

Mazkur to'planning bosh g'oyasini quyidagi so'zlarda mujassam bo'lgan eng muhim o'zak fikr tashkil etadi: «Biz o'tgan davrda amalga oshirgan ishlarimizga baho berar ekanmiz, 'Kecha kim edigu bugun kim bo'ldik?' degan savol asosida ularning mohiyati va ahamiyatini o'zimizga chuqur tasavvur etamiz. Ayni vaqtda "Ertaga kim bo'lishimiz, qanday yangi marralarni egallashimiz kerak?"- degan savol ustida o'ylashimiz, nafaqat o'ylashimiz, balki amaliy ishlarimiz bilan bunga javob berishimiz lozim».

Ana shunday yondashuv asosida mamlakatimizning mustaqillik yillarida bosib o'tgan tarixiy yo'li teran tahlil qilinib, bu hayotiy savollarga chuqur va haqqoniy javoblar berilgani nashrning qimmatini yanada oshiradi.

Ushbu kitobni mutolaa qilar ekanmiz, har bir masalaga xalqimizning milliy manfaati va yana bir bor milliy manfaati nuqtai nazaridan yondashish, teran qiyosiy-tahliliy mushohada, tarix, zamon va kelajakni bir butun dialektik hodisa sifatida ko'rish, har qanday mavzuda jo'shqin bahs va muloqotga tayyorlik – bularning barchasi mustaqil o'zbek davlatining asoschisi, dunyo miqyosida tan olingan yirik davlat va siyosat arbobi Islom Karimovning siyosiy uslubiga xos bo'lgan yorqin xususiyatlar ekaniga ishonch hosil qilamiz.

Ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy hayotimizda beqiyos ahamiyat kasb etadigan mazkur kitob hozirgi va ertangi kunimizning eng ustuvor yo'nalishlarini o'zida mujassam etib, yangi va yaqin tariximizning hali biz to'la anglab etmagan ko'plab qirralarini kashf etishda, jamiyatimizning taraqqiyot falsafasini, mamlakatimiz va xalqimiz kelajagi, uning ravnaqini belgilab berishda, ayniqsa, yoshlarimizni Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalashda muhim dasturilamal bo'lib xizmat qilishi shubhasiz.

ИСТИҚЛОЛНИНГ ИСТИҚБОЛЛИ ЁШЛАРИ

Республикада ёшларни ҳар томонлама қўллаб-қувватлаш ва уларга барча шарт-шароитларни яратиш борасида талайгина ишлар амалга ошириб келинмоқда. Бунга жавобан ёшлар ҳам ўз иқтидорларини намойиш этиб, мамлакатимизни жаҳонга танилишида ўз хиссаларини қўшиб келмоқдалар.

Ана шундай ёшлардан бири Тошкент давлат аграр университети “Қишлоқ хўжалиги иқтисодиёти” кафедраси ассистенти Мустафаев Сарвар Абдироззокович жорий йилнинг 16-29 апрел кунлари Чехия Давлатининг Прага шаҳрида Марказий Богемия университети ва Табиий фанлар университетлари ҳамкорлигида “Европа университетларида таълим ва технологияларни замонавий ривожланиши” мавзусида ўтказилган ўқув семинарида иштирок этиб, Европа таълим тизимининг афзалликлари ва кадрлар тайёрлаш тизими билан танишди.



Шунингдек, 2015 йилнинг 22-24 июнь кунлари Венгрия давлатининг Будапешт ва Годолио шаҳарларида, БМТнинг Озиқ-овқат ва қишлоқ хўжалиги ташкилоти (FAO) ва Szent Istvan University томонидан ташкил этилган “Европа ва Марказий Осиёда Минтақавий имкониятларни ривожлантириш ва миллий электрон қишлоқ хўжалиги стратегиялари” номли халқаро семинарда Ўзбекистон делегация вакиллари – Ўзбекистон Республикаси Қишлоқ ва сув хўжалиги вазирлиги ахборот таҳлил ва матбуот хизмати бошлиғи М.Ибрагимов, Марказий Осиё ва Кавказ давлатларида қишлоқ хўжалиги тадқиқотлари институтлари ассоциацияси, ижрои қотиби А.А.Ташматов, Марказий Осиё ва Кавказ давлатларида қишлоқ хўжалиги тадқиқотлари институтлари ассоциацияси, техник консултант Б.Досовлар билан биргаликда иштирок этди.



Семинарда Арманистон, Азарбайжон, Беларус, Босния ва Герцеговина, Грузия, Қирғизистон, Македония, Молдовия, Руминия, Россия, Словакия, Словения, Тожикистон, Туркия, Украина, Ўзбекистон, Кения, Косово, Гамбия Венгрия давлатларидан 46 та давлат делегациялари, БМТнинг Озиқ-овқат ва қишлоқ хўжалиги ташкилоти (FAO),



Мустафаев Сарвар Абдироззокович
1990-йилда Қашқадарё вилояти,
Чирокчи туманида туғилган. 2013
йилдан буён Тошкент давлат аграр
университети “Қишлоқ хўжалиги
иқтисодиёти” кафедраси ассистенти

Марказий Осиё ва Кавказ давлатларида қишлоқ хўжалиги тадқиқотлари институтлари ассоциацияси (CACAARI), озиқ-овқат хавфсизлиги Евро Осиё маркази (ESFS), қишлоқ хўжалиги ассоциацияларини қўллаб қувватлаш дастури (RASP), миллий қишлоқ хўжалиги илмий маркази, олий ўқув юрғлари вакиллари қатнашдилар.

Халқаро семинардан кўзланган мақсад Европа ва Марказий Осиё давлатларининг минтақавий имкониятларини ривожлантириш ва миллий электрон қишлоқ хўжалиги стратегияларини ривожлантиришдан иборат бўлиб, семинар Қишлоқ хўжалигида ахборот тизимини ривожлантиришга қаратилган қуйидаги мавзуларда иш олиб борди.

Қишлоқда ахборот коммуникатив технологиялардан (АКТ) фойдаланиш учун имкониятлар;

- Нима учун электрон қишлоқ хўжалиги стратегияси?;
- Давлатлар тажрибалари ва дастурларини амалга оширилиши ҳолати;
- Стратегия ишлаб чиқиш;
- Стратегия муҳокамаси: электрон қишлоқ хўжалиги стратегияси;
- Миллий электрон қишлоқ хўжалиги учун зарур асосларини тушуниш;
- Бошқарув ва самарали юритиш;
- Мавжуд ва зарур компонентларини аниқлаш;
- Имкониятларни, камчиликларни, хатар ва тўсиқларни баҳолаш;

Семинар иши давомида Европа ва Марказий Осиё давлатлари вакиллари ўз мамлакатларида агроахборот тизимини ривожланиши ҳолати, ютуқлар, камчиликлар ва муаммолар тўғрисида маърузалар қилдилар.

Шулар қаторида Тошкент давлат аграр университети “Қишлоқ хўжалиги иқтисодиёти” кафедраси ассистенти Сарвар Мустафаев ҳам иштирок этиб, “Ўзбекистонда агроахборот тизимини ривожланиши” номли мавзуда маъруза қилди.

Семинар давомида ўзаро фикрлар, билимлар алмашинди. Қишлоқда ахборот коммуникатив технологияларни жорий этиш бўйича ҳамкорлик ўрнатилди.

Мазкур семинарда С.Мустафаев “Европа ва Марказий Осиёда Минтақавий имкониятларни ривожлантириш ва миллий электрон қишлоқ хўжалиги стратегиялари” номли халқаро семинарда қатнашганлик сертификати ва Қишлоқ хўжалигида ахборот тизимини ривожлантириш ҳақида билим ва қўникмаларга эга бўлди.

Х.Каримова

“Агроном” газетаси муҳаррири

TALABALAR SHE'RIYATI



JAHONGIRBEK NORBO'TAYEV
QISHLOQ XO'JALIGIDA
MENEJMENT YO'NALISHI 1-33
GURUH TALABASI

Hazil-hazil bilan

Hazil-hazil bilan uchrashdik bizlar,
Hazil edi ilk bor senga so'zlarim.
Hayajon, hayratdan boqardi ko'zlar,
Yuzlaring qizarar, qizil yuzlarim.

Kun kunga ulandi kunlar haftaga,
Oylar o'tdi darrov hazil qilganday.
Yana ko'rishamiz derdik ertaga,
Kechagi diydorga bir yil bo'lganday.

Men izing poylardim sen izim poylab,
Yurak qo'rg'oniga visolni joylab.
Aldab qo'llaridan yetaklab bizlar,
Keldik uzoqlarga armonni boylab.



Men bir kun qo'lingdan so'ng tutib mahkam,
Seni sevaman deb ko'zingga boqdim.
Qo'llaring qaltirab ko'zing bo'ldi nam,
Men yana hazil deb qoshlarim qoqdim.

Kunlarning birida yig'lab kelding sen,
Meni begonaga berarlar deding.
Bu holni shunchaki hazil debman men,
O'zing baxtim eding, men edim baxting.

Lekin hayot hazil qilmadi bizga,
Barchasi rostmana ro'y berar afsus.
Bizning bo'stonimiz aylandi kuzga,
Sevardim... hazilmas, seni qora ko'z.

Hazil-hazil bilan uchrashdik bizlar,
Hazil edi ilk bor senga so'zlarim.
Hayotim qahraton, yuragim muzlar,
Taqdir hazilidan yig'lar ko'zlarim.

Hazil-hazil bilan ajraldi izlar...

GO'ZAL
ABDUMAMATOVA
AGRONOMIYA
YO'NALISHI
MAGISTRANTI

GULIM...

Bugun ...ne uchundir yuragimda tosh...
Yashashni istamas bag'ritosh dilim...
Kulib turibmanu, bo'g'zimda ko'z yosh,
Sen bunday yashashga o'rganma, gulim...

Telbalik ruhimni kemirar tinmay,
Armonlar tugamas, dard bilmas tinim.
Kul bo'lishim uchun urinar azob,
Sen bunday o'limga bosh egma, gulim...

O'z baxtimni tutib tursa deb kaftim,
Men ham xuddi sendek xohlagan edim.
Bugun sog'inch to'ldirib turar qo'llarim,
Sen bunday qolishga o'rganma, gulim...

Ko'zlarim armonda, diydam armonda,
Armondan to'kilib o'tyapti umrim.
Men orzudan yiroq yashagan chog'da,
Sen menday yashashga o'rganma, gulim...

Hammadan yashirgan og'ir aybim bor...
Men o'z yuragimni o'ldirib qo'ydim...
Shu sabab ishqsizman, qo'ynimda tosh bor..
Sen esa...
Sen qalbsiz yashashni tan olma, gulim...

QISQA SATRLAR

Ko'ngil uzib ketishimga qo'ymayapsan,
Nega bunday yarim ko'nglim qiynayapsan?!
Sen ichimda tugamagan umid bo'lib
Yuragimga yana ilinj bog'layapsan...

Sen borsan ko'nglimda umidim tinmaydi...
Ko'zimni to'ldirib turadi muhabbat.
Sen borsan... o'lsam ham hayotim bitmaydi,
Ko'nglingda yashamoq men uchun buyuk baxt...

“Istiqlol farzandlari” yoshlar festivali

Hali yosh bo'lishiga qaramay nafaqat mamlakatimizda balki jahonda Vatanimiz sha'nini munosib himoya qilayotgan yoshlardan tarkib topgan festival ishtirokchilarining taassurotlari aytishga arzigulik bo'ldi.

Erta tongdan ishtirokchilar “Mustaqillik va ezgulik” monumenti poyiga gul qo'yishdi. Yoshlarning “Vatanim taraqqiyotiga mening hissam!” mavzusidagi ijodiy ishlari, innovatsion va biznes g'oyalari taqdimoti hamda “Vatanimga muhabbatim izhori!” nomli aksiya yakuniga bag'ishlangan ko'rgazma, “Kamolot” YoIH Markaziy Kengashi raisi B.Ganiyevning “O'zbekiston yoshlarining rekordlari” mavzusidagi taqdimoti, turli yo'nalishlarda rekordlarni qayd etgan yoshlar bilan uchrashuv va Moskva davlat universitetining Toshkent shahridagi filiali bilan tanishuv bo'lib o'tdi.

Shundan so'ng “Yoshlar ijod saroyi”da “AKT+xorijiy til+zamonaviy kadr” mavzusidagi uchrashuv tashkil etildi. Uchrashuv mehmoni Inha universiteti rektori Sherzod Shermatov bo'ldi. Eslatib o'tamiz, o'tgan yilgi yoshlar festivali doirasida Xalqaro hakam Ravshan Irmatov bilan xuddi shunday samimiy suhbat tashkil etilgan edi. Tadbirni harakat raisi Baxodir Ganiyev ochib berdi va bugungi zamonaviy kadr uchun xorijiy tillarning nechog'lik ahamiyatli ekanligi xususida to'xtaldi.

Shu o'rinda ushbu universitet haqida ayrim ma'lumotlar:

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida xalqaro standartlar darajasida yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashni yanada takomillashtirish, shuningdek chet eldagi yetakchi Oliy o'quv yurtlari bilan hamkorlikni kengaytirish maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2014-yil 24-martda “Toshkent shahrida Inha Universitetini tashkil etish to'g'risida”gi Qaror qabul qilindi.

Inha universiteti (Janubiy Koreya) 1954-yilda tashkil etilgan, hozirda unda 20 ming nafardan ziyod talabalar turli ixtisosliklar, jumladan AKT yo'nalishi bo'yicha tahsil oladi. “Joong Ang Ilbo” nashriyoti reytingiga ko'ra, Universitet muhandislik va axborot texnologiyalari yo'nalishi bo'yicha eng yaxshi oliy o'quv yurtlari beshligiga kiradi.

“Akt+xorijiy til+zamonaviy kadr” mavzusidagi taqdimotida Inha universiteti rektori Sherzod Shermatov zamonaviy rivojlanayotgan har qanday davlat uchun yoshlarga chet tillarni o'qitish katta ahamiyat kasb etishini ta'kidladi. Universitetda yaratilgan sharoyitlar, zamonaviy o'qitish tizimi, talabalarni baholash mezonlari haqida batafsil ma'lumot berib, yaxshi kadr har doim o'z tuprog'ida qolishi va albatta, orzu-umidlarini shu joyda amalga oshirishi lozimligi haqida fikr bildirdi.

Festival ishtirokchilari universitetdagi ta'lim tizimi, talabalarni baholash, o'qituvchilar bilimni monitoring qilish, Inha universitetining ba'zi bir sinalgan tajribalarini boshqa oliy o'quv yurtlariga tatbiq qilish va boshqa masalalar bo'yicha o'zlarini qiziqtirgan savollarga javob olishdi.

- Men Shukurova Mohigul Boqiyevna, “Yurt kelajagi-2014” respublika iqtidorli yoshlar tanlovi ratsionalizatorlik takliflar yo'nalishi g'olibasiman. Taqdimot juda mazmunli va biz yoshlar uchun kerakli ma'lumotlarga boy bo'ldi. Chunki taqdimot jarayonida O'zbekiston yoshlarining salohiyati va ildam qadamlar ila har tomonlama barkamol va jahonda o'z o'rniga ega bo'lib borayotgani, men ham ana shu yoshlardan biri bo'lish uchun o'zimning oldimga yanada yuksakroq maqsadlarni qo'yishim kerakligini angladim.

Uchrashuv yoshlar qalbida til o'rganish, axborot kommunikatsiyalarini puxta o'zlashtirish bo'yicha muhabbat uyg'otdi, desak adashmaymiz.

G.Ashurova



KAMOLOT - YOSHLARGA QANOT**“Eng namunali boshlang’ich tashkilot”
tanlovining respublika bosqichi g’oliblari
aniqlandi**

2015 yil 4-15 avgust kunlari Qashqadaryo viloyati Shahrisabz tumanidagi “Lochin” bolalar sog’lomlashtirish oromgohida tashkil etilgan “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakatining oliy ta’lim muassasalaridagi boshlang’ich tashkilot yetakchilarining “Vatan ravnaqi yo’lida birlashaylik” III respublikaforumi bo’lib o’tdi.

Forumda yetakchilar Fuqarolik jamiyati shakllanishini monitoring qilish mustaqil instituti, “Kamolot” YoIH Markaziy Kengashi ekspertlaridan tarkib topgan hay’at a’zolari oldida o’zlarining eng ilg’or tajribasi yoki loyihasi bo’yicha taqdimotlari bilan ishtirok etishdi. Shuningdek, ishtirokchilari ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy sohalar hamda Harakat faoliyatiga oid savollarga javob berdilar.

Ekspertlar guruhi taqdimotlarni baholashda boshlang’ich tashkilotga ta’lim muassasasida yaratib berilgan shart-sharoitlar, yoshlar bilan bog’liq masalalarni hal etishda yetakchining shaxsiy tashabbuslari, bilim va ko’nikmasi, yetakchilik salohiyatiga alohida e’tibor qaratdilar.



Tanlov yakuni bo’yicha quyidagi yetakchilar g’olib deb topildi:

1-o’rin Toshkent davlat agrar universiteti yetakchisi — Duxradjayev Shavkat Fayzullayevichga; 2-o’rin Buxoro muhandislik-texnologiya instituti yetakchisi — Yuliyev Ozod Olimovichga; 3-o’rin esa, Toshkent temir yo’l transporti muhandislari instituti yetakchisi — Azimov Farrux Qaxramonovichga nasib etdi.

O’z muxbirimiz

Hashar — elga yarashar!

Prezidentimiz Islom Karimovning 2015 yil 17-iyuldagi “O’zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining yigirma to’rt yillik bayramiga tayyorgarlik ko’rish va uni o’tkazish to’g’risida”gi qarori asosida shahar va qishloqlarda, mahallalar, mehnat jamoalarida tevarak-atrofnı tartibga keltirish, obodonlashtirish, ariq-zovurlar, hiyobonlarni tozalash ishlari amalga oshirilmoqda.

Mamlakatimizdagi barcha tashkilot, korxonalar hamda muassasalarda mazkur tadbirni puxta tashkil etish va yuqori saviyada o’tkazishga qaratilgan aniq chora-tadbirlar belgilab olingan.

Bu borada 22-23 avgust kunlari Toshkent davlat agrar universiteti xodimlari ham o’z faolligini ko’rsatishmoqda. Bugun universitetda bo’lib o’tgan hashar davomida yoshlarimiz bino ichkarisini, ko’cha va yo’laklarni tartibga keltirishdi, daraxtlarga shakl berishib, hududlarni maishiy hamda qurilish chiqindilaridan tozalash va boshqa shu kabi yumushlarni bajarishdi.

Aziz hamyurtlar, eng ulug’, eng aziz bayramimiz—mustaqilligimizning 24 yilligini ko’tarinki ruhda kutib olishimizda, mahallalarimiz, ta’lim muassasalari hamda korxonalar-tashkilotlarning yanada obod bo’lishida siz ham faol bo’ling!



ЁНГАН ҚОҒОЗЛАР

Тошганбой ота ўйларидан...

Коллежда ўқиб юрган пайитларимда, ёзги таътил вақтлари амаким билан ишлаб, дурадгорлик сир-асрорларини ўрганардим. Иккинчи босқични тамомлаб, ёзги таътилни қарши олган кунимнинг иккинчи куни, ҳар доимгидек, амаким бир ишга тақлиф қилди.

Эрта тонгдан нонушта қилиб, амаким айтган манзилга бордим. Амаким катта ўғли билан мендан олдин келган экан. Улар билан саломлашиб бўлиб, Сардорнинг олдига бориб турдим.

- Ишимиз шуки... - деди амаким лаби орасидаги сигаретни ёқиб. - Мана шу эски пастак уйни бузиб, ўрнига каттарок, баландроқ уй қуришимиз керак.

- Амаки, бу уйда аввал ким яшаган?

- Эй, жиян.., Ўқтам ака деган бир инсон яшаган. Урушни тугатиб, ўз юртига тилдан қолиб қайтган. Мана шу уйда ўн беш кун яшаб, оламдан ўтган. Худо раҳматига олган бўлсин. Хуллас маҳалладаги катта уйлар қаторига, шу уйни ҳам қўшишимиз керак.

- У инсоннинг фарзандлари бормиди? - амаким бошини кимирлатди. - Нега бўлмасам ота уйини хувиллатиб қўйишган.

- Эй, бўлди. Ўзим ҳам билмайман. Қани энди ишга марш. - деб қўлидаги сигаретни улоқтириб юборди.

Нонуштани қилиб бўлиб, томсувоқ устидаги, эски буюмларни пастга тушира бошладик. Кун пешиндан оккунча, томдаги ҳамма черипитсаларни олиб ташладик. Мен пастда тураман, Сардор тепада туриб, эски буюмларни узатиб туради. Бир маҳал тепага қарамасдан қўлимни юкорига чўзсам, Сардор қандайдир китоб узатапти.

- Ушла шоир, ўқирсан. - деб китобни қўлимга тутқазди.

Муковаси эскирган, чанга тўлган китоб муковасини кафтим билан артиб тозаладим. Бу китоб Ҳинд ёзувчиси Прем Чанднинг „Меҳригиё“ ҳикоялар китоби экан.

Китобни эски сандиқ устига қўйиб, яна ишни давом эттирдим. (Амаким иш вақтида китоб ўқиб ўтирганларни ёмон кўрарди).

Қоронғу тушгунча китобни очиб ҳам кўрганим йўқ. Бугунги ишни тамомлаб бўлганимиздан сўнг, амакимдан китобни олиб кетишга руҳсат сўрадим. (Уста ишлаётган уйда бир дона мих йўқолиши керак эмасди).

- Майли, шоирлигинг учун руҳсат. Фақат ўқиб бўлиб яна жойига ташлаб кетасан. - деди ҳар сўзини чертиб-чертиб.

Уйга қайтиб келиб, кечқурунги овқатни еб бўлиб, хонамга кириб кетдим. Китобни дастўмолчам билан артиб тозаладим. Сўнгра ижод столига ўтириб, китобни варақлай бошладим. Варақлар орасидан бирин-кетин ёнган қоғозлар чиқа бошлади. Ҳаяжон ичида варақларни бир-бир ўқий бошладим. Охириги варақни ўқиб бўлишим билан, мижжаларимда думалаган ёшлар, ёнган қоғозлар устига тушди.

Йўқ, бу, бу воқеаларни мен гапириб бермайман. Мадорим тугади. Яхшиси қалбдан отилиб чиққан ота хасратларини ўзингиз ўқинг.

Ўғлим Умматали, кечир отангни. Тилдан қолганлигим учун, қалбимдаги ўйларни гапириб эмас, ёзиб бермоқдаман.

Минг тўққиз юз қирқ учинчи йилнинг август ойларида, менинг бошчилигимдаги развед группа, немисларга асир тушиб қолди. Уларнинг қўлида уч кунча туз тотмасдан юрдик. Тўртинчи куни улар барглари тўкилиб, ерлар қизғиш тусга кирган ўрмон ичидан, орқамиздан ҳайдаб қаергадир олиб кетишадиган бўлишди. Йигирма чоғлик асирга тушганлар, охиста қадам босиб борардик. Қайси-ки асир тўхтаб қолса тамом, автоматни тариллатиб отиб ташлашарди. Қадам ташлаган саримиз очлик ташналик, ич-этимизни еб борарди.

Ҳаёл суриб кетаётган эканман, автоматнинг тариллаганидан чўчиб тушдим.

Ортга ўгирилиб қарасам қайсидир харбий форма кийган, мен танимайдиган, аммо бизнинг армияга хизмат қилиб келаётган йигит ерга юзтубан бўлиб ётибди. Автомат ушлаб олган немис солдати, йигитнинг белига қараб кетма-кет ўқ узди.

Кетаётганларнинг бирортаси чурқ этмади. Яна атрофни ўлик сукунати ўраб олди. Бу қадам ташлашларимиздан шуни билдимки, инсон боласи ҳар нарсага чидар экану, лекин очликка чидолмас экан.

Нималарни ўйлаб бораётганимни билмасдим. Бу курук ўйлар исканжасини, олисдан таралаётган „гармошка“ садолари бузиб ташлади. Очлик, ташналик кулоқларингни динг қилиб кўяр экан. Миямга яшиндек тезликда бир ўй келди. „қишлоқ бор экан“.

Гармошка садолари ҳаёлимдаги қишлоқни, немислар босиб олганлигини айтарди гўё.

„Бу қандай бедодлик, наҳотки одам одамга ҳайвонларча муносабатда бўлса? Душман ҳам, биз ҳам одаммизку. Бу беш кунлик дунёни тинч - хотиржам яшаб ўтганлар борку ахир. Инсон боласи ўзига ўхшаганларни ўлдириб лаззат топмайдику“.

Қалбимда шу ўйлар тўғён уриб турганда, қишлоқ кўчаларининг бирига кириб келганимизни пайқаб қолдим. Тупроққа тўлиб - тошган ерларда, танклар изи тушган кўчадан юриб бориб, учта занжирли танклар олдида тўхтадик.

Танклар ярим ой шаклида, замбарақларини ўртада ўтирган одамларга қаратиб қўйилган эди. Бизни ҳам ана ўша одамларнинг сафига қўшишди. Мен ҳам ерга ўтирдим. Ўтирдиму юрагимга ғулғула тушди. „Танк замбарақидан битта снаряд отишса-я“.

Биз ўтирган жойдан беш қадам узоқликда, бир немис офицери бир нималарни ўйлаб сигарет чекарди.

- Kom hiver¹ - деди сафдан ажраб ўтирган йигитга бармоқлари билан ишора қилиб.

У ишора қилган йигит хоҳламайроқ ўрнидан туриб, унинг олдига борди. Чамамда йигит немисча билса керак, унинг тилига ўхшаган тилда нималардир деди.

- Gibt es hier dein vater² - деди офицер фуражканини бошқатдан кийиб.

- Ya³ - деди йигит биз томонга қараб.

- Ruf ihn⁴.

Йигит ўтирган жойига келиб, бир чолни олиб кетди. Менимча чол отаси еди.

Ўша чолнинг нимасидир йигитнинг юзидан таралиб турарди.

- Gut⁵ - деди офицер чолнинг атрофини айланиб. - Steh hier, und du, geh dorthin⁶ - деб йигитни чолнинг олдида етти кадамча узоқроққа олиб борди.

- Halt den waffen und schiepe deinen vater⁷ - деб йигитнинг қўлига тўппонча тутқазди.

- Nein, ich schiepe nicht⁸ - деб бақирди йигит.

- Wen du nichit schiept, schipe ich allim dorf uberstre ihnen auch.

Йигит биз томонга ўгирилиб „Агар мен отамни отмасам бу муттаҳам сизларни ўлдираркан“ деб аламли ҳитоб қилди.

Юрагим музлаб кетди. Ўтирганлар орасида шивир - шивир гаплар бошланди.

Баъзилар „отангни от биз яшашимиз керак“ дерди. Яна биров „ўз отангни отма мана бизни от“ дерди.

- До пити пошитаю. - деди офицер тили келишмасдан.

Шундан сўнг у токати ток бўлиб, бешгача санай бошлади. Қўзларимни юмиб мен ҳам ичимда санай бошладим. „Бир, икки, уч...“, дейишим билан тўсатдан отилган ўқ еру кўкни ларзага солди.

(ҳикоянинг давоми газетамизнинг кейинги сонида)

Рустам Қўчқоров

“Қишлоқ хўжалигини механизациялаш” факультети талабаси

SIZ UCHUN QIZIQ



SHIFOBAXSH TABIAT

Turp - shifobaxsh ne'mat

Turpda bir qator xastaliklarga shifo bo'ladigan xususiyatlar mavjud. Turp "S" vitaminiga boydir. Turp hazm bo'lish jarayonini yaxshilaydi, organizmdan ortiqcha xilt va xolesterinni chiqarib yuborishga yordam beradi. Bu sabzavotning sharbati jigarni, o't pufagini, oshqozon osti bezini va limfalarni davolovchi eng yaxshi vositadir. Asal yoki shakar bilan teng miqdorda olingan sharbati ko'kyo'talni davolaydi. Yuqori nafas yo'llari shamollashida, bronxitda balg'am ko'chiruvchi vosita sifatida qo'llash maqsadga muvofiq.

Turpning sharbati revmatizm, podagra, mioz, nevr, radikulitda tashqi tomondan qo'llaniladi. Qirg'ichdan shiqarilgan turp va uning sharbati yiringli yara va jarohatlarning bitishiga ko'mak beradi.

Biroq undan foydalanishda mavjud ko'rsatmalarga e'tibor qaratish zarur. Uni buyrak kasalliklarida, oshqozon-ichak tizimi shamollaganda iste'mol qilib bo'lmaydi. Yurak kasalliklarida esa undan ehtiyotkorlik bilan foydalanish lozim.

Aytish joizki, turp sharbati bilan organizm tozalanganda, kishi ortiqcha vazndan ham qutilishi mumkin. Amaliyotda turp sharbatini iste'mol qilganlar 8-15 kilogramgacha ozganliklari kuzatilgan. Bunday muolajadan foydalanishda shifokordan maslahat olish foydadan holi bo'lmaydi.

YIL FASLLARI FE'L-ATVORNI ANIQLAYDI

Psixologlar insonlarning qanday fe'l-atvorga ega ekanliklarini aniqlashning turli xil usullarini o'ylab topishgan. Quyida insonlarning xarakterlarini yilning qaysi faslida tug'ilganligi orqali bilib olish usullari keltirilgan.

Bahor faslida tug'ilgan insonlar jismoniy va ruhiy jihatdan nozikroq, tez kasal bo'ladigan, salga ranjiydigan bo'lishadi. Bu insonlar tabiatan jizzaki, qat'iyatsiz, ko'pincha o'zlarini o'ylaydiganlar toyifasidan. Ularning ko'pchiligi judayam iqtidorli, ammo o'zlariga ishonmaganliklari tufayli biron bir sohadagi layoqatlarini yuzaga chiqishida qiynaladilar. Hazilni yaxshi tushunadilar, xotiralari esa mustahkam bo'ladi.



Qish faslida tug'ilganlar tabiatan irodali, aniq maqsad sari olg'a intiluvchan, iqtidorli, chuqur fikrlovchi bo'ladilar. Ammo ular oilada doimo muammolar keltirib chiqarishadi. Bunga "qish odamlari" shaxsiyatidagi chiqisha olmaslik, birovga yon bermaslik, bo'sh kelmaslik kabi xususiyatlar sabab bo'ladi. Ular arzimagan narsalar ustida soatlab bahslashishadi va bahs-munozarada ustun kelishadi. Ko'pchiligining qahri qattiq va qat'iy bo'ladi.

Yozda tug'ilgan kishilar mehribondirlar. Ular hissiyotlarga tez beriluvchan va ta'sirchandirlar. Tavakkalchilikni yoqtiradilar, tirishqoqlar. O'z qadr-qimmatini yaxshi biladilar. Tabiat va xayvonlarga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'ladilar, san'atni yaxshi tushunadilar. Yozda tug'ilgan bolalarga jiddiyroq ism qo'yish tavsiya etiladi. Chunki ism, ularni kutilmagan omadsizlikdan himoya qilib turadi.

Kuzda tug'ilgan kishilar universal bo'lishadi. Ular mulohazali, jiddiy va har tomonlama qobiliyatlilar. Ishlari, hayotlari davomida to'plagan tajribalarini qadrlaydilar va oson qo'llay oladilar. O'tmishda qilgan xatolarini hech qachon takrorlamaydilar. Har bir ishni shoshilmasdan, bamaylihotir va yaxshilab o'ylab amalga oshiradilar.

«AGRONOM»
MUASSIS:
Toshkent
Davlat
agrar
universiteti

Gazeta Toshkent viloyati
Matbuot va axborot
boshqarmasi tomonidan
19.10.2010 y.
№03-068 raqam
bilan ro'yxatga olingan

ISSN raqami 2181-7782

Muharrir:
XOLIDA KARIMOVA

Tahrir hay'ati:

A.A. ABDUVOSIQOV, F. ASHUROVA,
D. XOLIQOVA, SH. DURXODJAYEV,
M. QURBONOVA

agronom_gazetasi@umail.uz
Tahririyat manzili: Toshkent vil.
Qibray t. Universitet ko'chasi, 2 uy
Gazeta TDAU Tahririyat-nashriyot bo'limida 500 nusxada
bosildi



Bosishga
topshirilgan vaqt:
30 Avgust 2015 yil.